



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM INTEGRATSIYASIDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK HAMKORLIK VA O'QITUVCHILARNI QO'LLAB-QUVVATLASH ASOSLARI

Madgapilova Nargiza Talipjanovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, o'qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik hamkorlik va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash nazariy asoslarga tayangan, ko'p qirrali va uzluksiz tizim sifatida ko'rib chiqilgan. Bu tizim pedagogning kasbiy barqarorligi, ta'lim sifati va bolaning rivojlanishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Qo'llab-quvvatlash pedagogning kasbiy rivojlanishini, ijtimoiy va psixologik muvaffaqiyatga erishishini rag'batlantirishga qaratilgan va psixologik hamda pedagogik funksiyalarni uyg'unlashtirgan holda amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasi, pedagogik-psixologik hamkorlik, qo'llab-quvvatlash, kasbiy rivojlanish, psixologik-pedagogik funksiyalar.

ОСНОВЫ ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И ПОДДЕРЖКИ УЧИТЕЛЕЙ В ИНТЕГРАЦИИ ДОШКОЛЬНОГО И ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Мадгапилова Наргиза Талипжановна
Чирчикский государственный педагогический университет, преподаватель

Аннотация

В настоящей статье рассматривается педагогическое и психологическое сотрудничество и поддержка учителей в условиях интеграции школьного и дошкольного образования как теоретически обоснованная, многоаспектная и непрерывная система. Эта система является важным фактором обеспечения профессиональной устойчивости педагогов, повышения качества образования и всестороннего развития детей. Поддержка направлена на стимулирование профессионального развития педагогов, их социального и психологического успеха и реализуется с учетом единства психологических и педагогических функций.

Ключевые слова: Интеграция школьного и дошкольного образования, педагогическое и психологическое сотрудничество, поддержка учителей, профессиональное развитие, психологопедагогические функции.

FOUNDATIONS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL COOPERATION AND TEACHER SUPPORT IN THE INTEGRATION OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION

Madgapilova Nargiza Talipjanovna
Chirchik State Pedagogical University, Lecturer

Abstract

This article examines pedagogical and psychological cooperation and teacher support within the framework of school and preschool education integration as a theoretically grounded, multifaceted, and continuous system. This system serves as a crucial factor in ensuring teachers' professional stability, enhancing the quality of education, and promoting comprehensive child

development. Support is aimed at stimulating teachers' professional growth and social-psychological success, implemented through the integration of psychological and pedagogical functions.

Keywords: School and preschool education integration, pedagogical and psychological cooperation, teacher support, professional development, psychological-pedagogical functions.

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik hamkorlik va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash asoslari ta'lim tizimida uzviylik va izchillikni ta'minlashga qaratilgan muhim yo'nalish hisoblanadi. Ushbu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumta'lim maktablari o'rtasidagi hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishi, uning yangi ta'lim bosqichiga samarali moslashuvi hamda individual xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim berishni nazarda tutadi.

Pedagog va psixolog o'rtasidagi tizimli muloqot, bolaning ruhiy-psixologik holatini birgalikda tahlil qilish, ta'lim muhitini moslashtirish va qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlarni ishlab chiqish integratsiyaning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, emotsional barqarorligini ta'minlash, stress holatlarining oldini olish va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni samarali qo'llashga ko'maklashishni qamrab oladi. Bu jarayon shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'zaro hurmat va hamkorlik, ilmiylik va amaliylik uyg'unligi tamoyillariga tayanadi hamda ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda pedagogika nazariyasi va zamonaviy pedagogik amaliyotda "psixologik va pedagogik qo'llab-quvvatlash" tushunchasi keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida integratsiya jarayonlari kuchaygan bir sharoitda ushbu atama mazmun jihatidan yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Biroq mavjud ilmiy manbalar ko'pligiga qaramasdan, maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasi doirasida o'qituvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning mazmun-mohiyati, shakl va usullari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglarini kasbiy faoliyat jarayonida kompleks hamrohlik qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etilmagan masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik hamkorlik bolaning rivojlanishida uzluksizlikni ta'minlash bilan birga, pedagogning kasbiy salohiyatini mustahkamlashni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, qo'llab-quvvatlash faqat maslahat berish yoki muayyan muammoni hal etish bilan cheklanmaydi, balki u o'qituvchining kasbiy rivojlanishi, emotsional barqarorligi va innovatsion faoliyatga tayyorligini ta'minlovchi tizimli jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Ilmiy adabiyotlarda "qo'llab-quvvatlash" tushunchasi turlicha talqin etiladi. Uning mazmunini aniqlash maqsadida ayrim ta'riflarga murojaat qilish maqsadga muvofiq. Jumladan, S.I.Ojegov "hamrohlik qilish" tushunchasi kimgadir yordam berish, birga harakatlanish, yaqindan ko'maklashish ma'nolarini anglatishni ta'kidlaydi.[5] Ushbu izohdan kelib chiqib, pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'lim jarayoni ishtirokchisini, xususan, pedagogni kasbiy faoliyati davomida izchil ravishda kuzatib borish, zarur sharoit yaratish va maqsadli yordam ko'rsatish jarayoni sifatida talqin etish mumkin.

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasi sharoitida pedagogik-psixologik hamkorlik va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar sifatida namoyon bo'ladi. Ular ta'lim sifati oshirish, bolaning yangi bosqichga moslashuvini yengillashtirish va pedagogning kasbiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, "hamrohlik" tushunchasining mazmunini chuqurroq anglash muhim ahamiyat kasb etadi.

V.I.Dal "hamrohlik qilish"ni muayyan shaxs bilan birga yo'l bosish, uni kuzatib borish

harakati sifatida talqin etadi. Bu izohga ko'ra, hamrohlik qiluvchi shaxs faqat kuzatuvchi emas, balki yo'l boshchi, yo'nalish beruvchi sub'ekt sifatida namoyon bo'ladi. So'z tarkibidagi "so" (qo'shma harakatni anglatuvchi) ma'nosi jarayonning birgalikda, muvofiqlashgan tarzda amalga oshirilishini bildiradi. Eng umumiy ma'noda esa hamrohlik – ikki sub'ektning uchrashuvi va muayyan yo'l qismida birgalikda harakat qilishi sifatida izohlanadi.[3]

Ushbu lug'aviy talqinni ta'lim tizimiga tatbiq etsak, maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash pedagog va psixologning o'zaro hamkorlikdagi izchil faoliyatini anglatadi. Bunda psixolog pedagogni kasbiy faoliyat yo'lida "kuzatib boruvchi", maslahat va yo'nalish beruvchi mutaxassis sifatida ishtirok etadi. Jarayon bir tomonlama ta'sir emas, balki o'zaro muloqot, fikr almashuv va qo'shma qaror qabul qilishga asoslangan dinamik tizimdir.

Integratsiya sharoitida hamrohlik tushunchasi faqat muayyan yordam ko'rsatish bilan cheklanmaydi, balki pedagogning kasbiy rivojlanish traektoriyasida uni izchil qo'llab-quvvatlash, maqsadli sharoit yaratish va umumiy ta'limiy maqsadlar sari hamkorlikda harakat qilishni anglatadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonining uzluksizligi, izchilligi va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, qo'llab-quvvatlash bevosita faoliyat jarayonida amalga oshiriladigan dinamik hamkorlik bo'lib, u oddiy boshqaruv yoki masofaviy nazoratdan farq qiladi. Agar boshqaruv tashqi ta'sir orqali yo'naltirishni anglatga, qo'llab-quvvatlash esa shaxsiy ishtirok, hamdardlik va kasbiy sheriklikni nazarda tutadi.

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik hamkorlik aynan shu mazmunda namoyon bo'ladi: psixolog va pedagog o'zaro ishonch va teng sheriklik asosida faoliyat yuritadi, bunda o'qituvchining ham sotsializatsiyasi, ham individual rivojlanishi qo'llab-quvvatlanadi. Ya'ni pedagog jamoaga moslashish, kasbiy rolini anglash bilan birga, o'zining shaxsiy salohiyati va uslubini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Turli sohalarida "qo'llab-quvvatlash" tushunchasi mazmunan o'xshash, ammo maqsad jihatidan o'ziga xos tarzda talqin qilinadi. Masalan, tibbiyotda u bemorning sog'ligini saqlash va tiklashga qaratilgan kompleks xizmatlar tizimini anglatga, huquqshunoslikda malakali mutaxassis tomonidan huquqiy jarayon davomida izchil maslahat va himoyani ta'minlashni bildiradi. Ta'lim sohasida esa mazkur tushuncha oddiy "yordam" yoki "ta'minlash" ma'nolari bilan cheklanmaydi. U rivojlanish sub'ektining mustaqilligi va mas'uliyatini saqlagan holda, unga ongli tanlov qilish va muammoni hal etish imkonini yaratishga qaratilgan jarayondir.[7]

Amaliyotda ta'limiy hamrohlik masalasi turli yondashuvlar asosida talqin etiladi. Ayrim tadqiqotchilar uni jarayon sifatida, boshqalar metod sifatida, yana ayrimlari esa mutaxassislar faoliyatining alohida kasbiy tizimi sifatida ko'rib chiqadilar. Jarayon nuqtai nazaridan yondashilganda, qo'llab-quvvatlash o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan izchil va o'zaro bog'liq harakatlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Bu harakatlar pedagogning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish, refleksiya uchun kuchaytirish, innovatsion faoliyatga tayyorligini oshirish hamda integratsiya sharoitida samarali ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.[4]

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasi doirasida pedagogik-psixologik hamkorlik va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash nazariy jihatdan asoslangan hamda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan yaxlit tizimni tashkil etadi. U pedagog shaxsining kasbiy barqarorligini mustahkamlash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonga usul sifatida yondashilganda, qo'llab-quvvatlash ta'lim maydoni ishtirokchilari uchun maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan amaliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ya'ni u maktab va maktabgacha ta'lim o'rtasidagi o'zaro ta'sir sharoitida o'qituvchilarning to'g'ri qaror qabul qilishi, kasbiy vazifalarni samarali bajarishi va integratsiya talablariga moslashishini ta'minlovchi metodik yondashuv hisoblanadi.

Psixologik adabiyotlarda "qo'llab-quvvatlash" tushunchasi turlicha izohlanadi.

Jumladan, T.G.Yanicheva qo'llab-quvvatlashni shaxs rivojlanishining muayyan bosqichida yuzaga keladigan muammolarni hal etish yoki ularning oldini olishga qaratilgan maxsus yordam turi sifatida talqin etadi. Uning fikriga ko'ra, hamrohlik jarayoni shaxsning ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.[10]

M.R.Bityanova esa qo'llab-quvvatlashni psixologning kasbiy faoliyati tizimi sifatida baholaydi va uning asosiy maqsadi mijoz shaxsining boshqalar bilan o'zaro munosabat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlar yaratishdan iborat deb hisoblaydi.[2] Bu yondashuvda qo'llab-quvvatlash profilaktik va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lib, shaxsning ichki imkoniyatlarini ochishga qaratilgan.

Ushbu nazariy qarashlarni maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasi sharoitiga tatbiq etganda, pedagogik-psixologik hamkorlik o'qituvchining kasbiy rivojlanish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, ularning oldini olish hamda samarali ijtimoiy-pedagogik muhitni shakllantirishni nazarda tutadi. Demak, integratsiya sharoitida qo'llab-quvvatlash faqat muammoga javob chorasi emas, balki pedagogning kasbiy salohiyatini izchil rivojlantirishga qaratilgan tizimli va uzluksiz jarayondir.

Tuzatish pedagogikasi nuqtai nazaridan qo'llab-quvvatlash o'qituvchi shaxsini o'rganish, tahlil qilish, shakllantirish va rivojlantirishning ajralmas jarayoni sifatida qaraladi. Bu yondashuvga ko'ra, qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi o'qituvchining shaxsiy va kasbiy o'sishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, kasbiy tayyorgarlik davomida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga ko'maklashishdan iborat.

L.A.Belyaeva qo'llab-quvvatlashni shaxs rivojlanishida yuzaga keladigan deformatsiya sabablarini aniqlash va shu asosda uning ijtimoiylashuvi hamda barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi tizimni barpo etish jarayoni sifatida talqin etadilar.[1] Ularning fikricha, qo'llab-quvvatlash shaxsning me'yoriy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan profilaktik va korreksion choralarni o'z ichiga oladi.

L.M. Shipitsina va Ye.I. Kazakova esa qo'llab-quvvatlashni rivojlanish sub'ekti uchun turli hayotiy vaziyatlarda mustaqil va maqbul qaror qabul qilish imkonini beruvchi sharoitlarni yaratish jarayoni sifatida baholaydilar.[8] Bu ta'rif qo'llab-quvvatlashning asosiy mazmuni shaxsning mustaqilligi va mas'uliyatini saqlagan holda uning ichki resurslarini faollashtirishdan iborat ekanini ko'rsatadi.

Turli mualliflar qarashlarini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, "qo'llab-quvvatlash" atamasining qo'llanilishi sub'ektning mustaqil qaror qabul qilish huquqini e'tirof etish va uning shaxsiy tanlovi uchun mas'uliyatni saqlab qolish zarurati bilan bog'liq. Ya'ni hamrohlik qilayotgan mutaxassis tayyor yechimni taqdim etmaydi, balki pedagogga mustaqil harakat qilish, ongli tanlov qilish va o'z qarorlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish imkoniyatini yaratadi.

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasi sharoitida qo'llab-quvvatlash ko'p funksiyali xarakterga ega bo'lib, u o'qituvchining yaxlit rivojlanishini ta'minlaydi. Bir tomondan, pedagogga kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni hal etishda yordam beriladi va uning pedagogik muvaffaqiyati oshiriladi. Ikkinchi tomondan esa uning sotsializatsiyasi, individualizatsiyasi va ijtimoiy-psixologik moslashuvi har tomonlama rag'batlantiriladi.

Vaqt jihatidan qo'llab-quvvatlash jarayoni pedagogning kasbiy tayyorgarligi boshlangan paytdan to uning muvaffaqiyatli shakllanishiga qadar davom etadi. Bu jarayonning murakkab tabiati uni turli mutaxassislar hamkorligida amalga oshirishni taqozo etadi. Xususan, huquqiy himoya, ijtimoiy yordam, pedagogik va psixologik ko'mak, shaxsiy rivojlanishni rag'batlantirish, ijtimoiy ta'lim va ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirish kabi yo'nalishlar o'zaro bog'liq holda amalga oshiriladi.

Maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik hamkorlik va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash nazariy asoslarga tayangan, ko'p qirrali va uzluksiz tizim

hisoblanadi. U pedagog shaxsining kasbiy barqarorligi, ta'lim sifatini oshirish va samarali ijtimoiy-pedagogik muhit yaratishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Qo'llab-quvvatlashning asosiy maqsadi – o'qituvchining ijtimoiy-psixologik muhitini yaratish, malkasini rivojlantirish va shakllantirish uchun sharoit yaratish, shuningdek uning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy salohiyatini yangi davlat ta'lim standartlari talablariga moslashtirishdir.

T.G.Yanicheva qo'llab-quvvatlash vazifalarini aniqlaydilar. Ularga ko'ra, qo'llab-quvvatlash:

- o'qituvchi va uning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi psixologik rivojlanish dinamikasini tizimli monitoring qilish;
- shaxsiy ta'lim rivojlanish traektoriyasini shakllantirish va barqaror kognitiv motivatsiyani rivojlantirish;
- o'qituvchining o'zini bilish, o'zini rivojlantirish va shaxsiy o'sish qobiliyatini aniqlash;
- maxsus psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratish, ularning kasbiy va shaxsiy muammolarini hal qilish va yordam ko'rsatishdan iborat bo'ladi [10].

Yu.V.Slyusarevning fikriga ko'ra, qo'llab-quvvatlash psixologik va pedagogik bir qator funksiyalarni bajarishga imkon beradi: axborot, rahbarlik va rivojlanish funksiyalari[9]. Axborot funksiyasi barcha manfaatdor tomonlarni qo'llab-quvvatlash shakllari va usullari to'g'risida xabardor qiladi, shu jumladan o'qituvchilar va maktabgacha ta'lim tashkiloti ma'muriyatini ham. Rahbarlik funksiyasi qo'llab-quvvatlash jarayonida ishtirok etayotgan barcha sub'ektlarning harakatlarini o'qituvchining kasbiy tayyorgarligiga moslashtirishni ta'minlaydi. Rivojlanish funksiyasi esa qo'llab-quvvatlash tizimiga jalb qilingan barcha xizmatlarning harakatlarini o'qituvchi shaxsiy rivojlanishiga qaratilgan faoliyatga aylantirishni ta'minlaydi. Bu jarayonda psixolog va o'qituvchi hamkorligi, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlari ishtirokida zamonaviy ta'lim texnologiyalari qo'llaniladi.

Qo'llab-quvvatlashning psixologik komponenti o'qituvchi-psixologning diagnostik va tuzatish-rivojlanish faoliyati orqali amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda psixolog faqat shaxsiy yordam ko'rsatish vositasi sifatida emas, balki pedagogning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim hamroh sifatida ishtirok etadi.

Xulosa qilib aytganda, maktab va maktabgacha ta'lim integratsiyasida pedagogik-psixologik hamkorlik va o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash nazariy jihatdan mustahkam asoslangan, ko'p qirrali va uzluksiz tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu tizim pedagog shaxsining kasbiy barqarorligini ta'minlash, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Qo'llab-quvvatlash nafaqat muammoli vaziyatlarga javob berish, balki pedagogning kasbiy salohiyatini rivojlantirish, individual va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy-psixologik muhit yaratish va ustuvor pedagogik maqsadlarga erishishda integral ahamiyatga ega.

Bunda psixologik va pedagogik funksiyalar o'zaro uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi: psixologik komponent o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishini diagnostika, tahlil va korreksiya qilish orqali qo'llab-quvvatlaydi, pedagogik komponent esa ta'lim jarayonida innovatsion usullar va texnologiyalar orqali muvaffaqiyatli amaliy faoliyatni ta'minlaydi. Shu tariqa, qo'llab-quvvatlash pedagogning mustaqil fikrlashini, qaror qabul qilish qobiliyatini, mas'uliyatni his qilishini rivojlantirish va uning kasbiy resurslarini maksimal darajada faollashtirishga xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotlar va mualliflar qarashlariga ko'ra qo'llab-quvvatlash jarayoni psixolog va pedagogning hamkorligida tizimli ravishda amalga oshirilishi lozim. Bu hamkorlik maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi, ularning rivojlanish traektoriyasi va ijtimoiylashuv jarayonida barqaror natijalarga erishishni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Belayaeva L. N., Kamshilova O. N., Malakhovskaya M. L. Corpus technologies in research and education: Analysing English noun phrases in scientific texts // *Obshchestvo. Kommunikatsiya. Obrazovanie.* – 2021. – Vol. 12. – No. 4. – P. 46–59. – DOI:10.18721/JHSS.12404.
2. Битянова М. Р. Антропологический подход к решению проблем успешности обучения ребёнка в школе // *Педагогическая психология.* – 2005. – № 1. – С. 23–30.
3. Даль В. И. Толковый словарь живого великорусского языка. – Москва: Русский язык, 1991. – 699 с.
4. Мудрик А. В. Социальная педагогика. – Москва: Академия, 2000. – 454 с.
5. Ожегов С. И., Шведова Н. Ю. Толковый словарь русского языка: 80 000 слов и фразеологических выражений. – Москва: Азбуковник, 1997. – 748 с.
6. Pochebut L. G., Chiker V. A., Kuznetsova I. V., Gurieva S. D., Beznosov D. S., Volkova N. V., Yanicheva T. G. Psychological diagnostics of organizational social capital // *Social Psychology and Society.* – 2022. – Vol. 13. – No. 3. – P. 62–79.
7. Сафин В. Ф., Ников Т. П. Психологический аспект самоопределения личности // *Психологический журнал.* – 1984. – Т. 5. – № 4. – С. 65–73.
8. Шипицына Л. М., Казакова Е. И., Жданова М. А. Психолого-педагогическое консультирование и сопровождение развития ребёнка: пособие для учителя-дефектолога. – Москва: Владос, 2003. – 528 с.
9. Слюсарев Ю. В. Психологическое сопровождение как фактор активизации саморазвития личности: автореф. дис. ... канд. психол. наук. – Санкт-Петербург, 1992. – 22 с.
10. Yanicheva T. G., Pochebut L. G., Chiker V. A., Kuznetsova I. V., Gurieva S. D., Beznosov D. S., Volkova N. V. Psychological diagnostics of organizational social capital // *Social Psychology and Society.* – 2022. – Vol. 13. – No. 3. – P. 62–79.